

“SHAYTANAT” ROMANIDA KOMMUNIKATIV STRATEGIYA VA TAKTIKANING TANLANISHI

Nurmuxamedova Mavluda Renat qizi

*Xorazm viloyati, Xiva shaxri 9-son umum o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot o'qituvchi*

Anotatsiya: Mazkur maqolada “Shaytanat” badiiy asarida kommunikativ strategiya va taktikaning tanlanishi xususiyatlarini atroflicha yoritilishi va ifodalanishi, uni qo'llash bilan bog'liq muammolar ularning yechimi borasida fikr va mulohazalar keltirilgan bo'lib, turli xil usullarda ularni qo'llanilishi va ifodalanishi, xususiyati borasida so'z boradi. Nutqiy ta'sir ko'rsatishda kommunikativ strategiya va taktikaning to'g'ri tanlanishi muhim o'rin tutishi, shu bois kommunikativ strategiya va taktika masalasini pragmalingsvistik aspektda o'rganish dolzarb muammolaridan biri ekanligi haqida mulohazalarni izohladik.

Kalit so'zlar: Illokutiv akt, mental akt, nutqiy akt, tanqidiy fikrlash, strategiya, kommunikativ strategiya, muloqot taktikasi, hamkorlik (kooperativ) strategiyasi, miqdor tamoyili, sifat tamoyili, mavzuga oidlik tamoyili, «o'zini namoyon qilish» strategiyasi, obro'sizlantirish strategiyasi (diskreditatsiya), targ'ibot strategiyasi, «Qahramonlashtirish» strategiyasi.

ВЫБОР КОММУНИКАТИВНОЙ СТРАТЕГИИ И ТАКТИКИ В РОМАНЕ «ШАЙТАНАТ».

Нурмухамедова Мавлюда Ренат кизи

*Г. Хива, Хорезмская область Общеобразовательная средняя школа № 9,
Учительница родного языка и литературы*

Аннотация: В данной статье освещены и выражены особенности выбора коммуникативной стратегии и тактики в художественном произведении «Шайтанат», представлены проблемы, связанные с их применением, представлены мнения и комментарии, их использование и выражение в разных способы, речь идет о функции. Мы отметили, что правильный выбор коммуникативной стратегии и тактики имеет важное значение в речевом воздействии, поэтому является одной из актуальных проблем изучения вопроса коммуникативной стратегии и тактики в прагмалингвистическом аспекте.

Ключевые слова: иллокутивный акт, умственный акт, речевой акт, критическое мышление, стратегия, коммуникативная стратегия, коммуникативная тактика, кооперативная (кооперативная) стратегия, принцип количества, принцип качества, принцип субъективности, стратегия «самовыражения», стратегия дискредитация (дискредитация), стратегия продвижения, стратегия «героизации».

THE CHOICE OF COMMUNICATIVE STRATEGY AND TACTICS IN THE NOVEL "SHAITANAT"

Nurmukhamedova Mavluda Renat qizi

*Khiva city, Khorezm region General secondary school No. 9
Mother tongue and literature teacher*

Annotation: *This article highlights and expresses the features of the choice of communicative strategy and tactics in the work of art "Shaitanat", presents the problems associated with their application, presents opinions and comments, their use and expression in different ways, we are talking about function. We noted that the correct choice of communicative strategy and tactics is important in speech impact, therefore, it is one of the urgent problems of studying the issue of communicative strategy and tactics in the pragmalinguistic aspect.*

Keywords: *illocutionary act, mental act, speech act, critical thinking, strategy, communicative strategy, communicative tactics, cooperative (cooperative) strategy, principle of quantity, principle of quality, principle of subjectivity, strategy of "self-expression", strategy of discredit (discredit), strategy promotion, the strategy of "heroization".*

So'zlovchi muayyan jumlaning (kimmidir ishontirish, ogohlantirish, undash, ayblash, so'rash) ifodalash orqali maqsadli nutqiy harakatni amalga oshiradi. Z.Vendlerning fikricha, illokutiv akt mental akt, mental harakat hisoblanib, so'zlovchi nazarda tutgan ichki maqsadini tinglovchi tomonidan to'g'ri tushunilishi va ushbu harakatni bajarishga bo'lgan harakatidir. Illokutiv akt axborotning oddiy ifodasi bo'lib, unda so'zlovchining niyati oshkora yoki yashiringan bo'ladi.[1] Nutqiy aktlarning yashirin ifodasi illokutiv kuchning yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi:

Matnda so'zlovchining asl kommunikativ maqsadi e'tirozini bayon qilishdan iboratligi ko'rinib turibdi. Ammo nutq egasi e'tiroz akti orqali onasi bilan sodir bo'lgan holatga ko'pchilik duch kelayotganligini ham oshkor qilishni ko'zlaydi. Matn so'ngida «Bunday holga faqat mening onam duch kelgan deb o'ylaysizmi?» ritorik so'roq gapi orqali yakuniy xulosa (Bunday holga juda ko'p pensioner onalar duch kelgan) chiqariladi. Bu xulosa ritorik gapning presuppozitsiyasi sifatida yashirin ifodalanadi.

Bevosita nutqiy aktlar ifodaning oshkora bayoniga asoslanadi. Muayyan nutqiy akt uni ifodalashga xoslangan sintaktik struktura orqali bayon etilganda nutqiy aktning bevosita ifodalanishi amal qiladi. Jumladan, so'roq gap shaklidagi sintaktik qurilmalar orqali so'roqni ifoda etuvchi axborotning yoki darak gap orqali xabarning ifoda etilishi nutqiy aktning bevosita ifodalanishi sanaladi.[2]

M.Qurbonova muayyan nutqiy aktini uni ifodalashga xoslanmagan sintaktik-struktura orqali bayon etishda bilvositalik sodir bo'lishini va bunda quyidagi 2 xil holat kuzatilishini qayd etadi: a) sintaktik strukturaning birlamchi ma'nosi saqlangan holda unga qo'shimcha sintaktik ma'no yuklanadi, ikkinchi holatda esa sintaktik strukturaning birlamchi ma'nosi butunlay yo'qolib, uning o'rnini o'zga sintaktik ma'no egallaydi.

Bilvosita nutqiy aktlarni bayon etishda so'zlovchi umumiy bilimlar foniga, lisoniy va nolisoniy bilimlarga, shuningdek, tinglovchida shakllangan umumiy fikrlash qobiliyatiga tayanadi.[3]

Anglashiladiki, bilvosita nutqiy aktlarda asosiy axborot ustiga qo'shimcha axborot yuklanadi va bunda so'zlovchi va tinglovchining nutq ob'ekti haqidagi umumiy bilimi inobatga olinadi.

Sh.Safarov bilvosita nutqiy akti ikkilamchi akt deb hisoblaydi. U bu haqida quyidagi qarashni ilgari suradi: «... nutqiy birliklarning strukturaviy tuzilishi hamda ifodalanayotgan illokutiv (kommunikativ) mazmuni o'rtasida mavjud.

Muloqot muhitida yoki kontekstda qo'llanishiga nisbatan bir holatda xabar (darak) beruvchi nutqiy akt («*Men senga ob-havo haqida gapirmoqdaman*») ikkinchisida esa buyruq yoki iltimos mazmunidagi («*Men sendan eshikni yopishni so'rayman*») nutqiy akt sifatida idrok etiladi. Birinchi nutqiy aktning (assertivning) lisoniy tuzilishi ifodalanayotgan kommunikativ ma'noga mos kelganligi sababli u *vositasiz, birlamchi* akt hisoblanadi. Ushbu tuzilma vositasida rekvestiv (iltimos) nutqiy akti ifodalanganda esa *bilvosita (vositali), ikkilamchi akt* hosil bo'ladi. Boshqacha aytganda, lisoniy struktura va kommunikativ maqsad o'rtasidagi nomutanosiblik bilvosita nutqiy harakatni yuzaga keltiruvchi ko'rsatkichdir».

Bilvosita nutqiy aktlarning ikki illokutiv aktdan iborat bo'lishi haqidagi qarashlar J.Serl tomonidan ham qayd etilgan va birlamchi va ikkilamchi illokutiv faoliyat sifatida farqlangan.

A.Shamaxmudova birlamchi va ikkilamchi nutqiy aktlarga quyidagicha tavsif bergan: «Birlamchi illokutiv akt nutqiy tuzilmaning haqiqiy niyatini ifodalaydi. Ikkilamchi nutqiy akt esa shakliy tuzilishidan kelib chiqqan illokutiv akti voqelantiradi». Sh.Safarov «...lisoniy belgining duallik (ikkitomonlamalik) xususiyatida ko'rinadigan shakl va mazmun nomutanosibligiga tayanadigan ikkilamchi ma'no ko'pgina hollarda bilvosita nutqiy harakatlar hosil bo'lishi uchun o'ziga xos turtki yaratadi», deb hisoblaydi.

Ko'rinadiki, so'zlovchining kommunikativ maqsadi bilan bog'liq holda bir nutqiy tuzilma orqali 2 va undan ortiq illokutsiyaning ifodalanishi asosida bilvosita nutqiy harakatlar amalga oshiriladi.

Bilvosita nutqiy aktlarda asosiy axborot emas, uning ustiga yuklangan qo'shimcha axborot yashirin ifodalanadi. Bunda so'zlovchining qo'shimcha axboroti implitsit ifoda shaklida bayon etiladi. Gazeta matnlarida ham adresatga nutqiy ta'sir ko'rsatishda bilvosita nutqiy aktlardan foydalaniladi. Jumladan, muallif ba'zan o'z mulohazasini, voqelikka munosabatini so'roq shaklidagi bilvosita nutqiy aktlar orqali ifodalaydi.

Matnlar orqali nutqiy ta'sir ko'rsatishda muallif tomonidan kommunikativ strategiya va taktikaning to'g'ri tanlanishi muhim ahamiyatga ega. Bu jihatdan kommunikativ strategiya va taktikani nutqiy ta'sir ko'rsatishning muhim usuli sifatida baholash mumkin.

Ma'lumki, har bir adresant shaxsiy manfaati doirasida muloqot ishtirokchilariga nutqiy ta'sir ko'rsatishni maqsad qilib belgilaydi: o'z xulosalariga ishonitirishga, uning fikrlariga ta'sir o'tkazishga harakat qiladi. Bunday ehtiyoj va istak-xohish adresant tomonidan nutqiy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan aniq kommunikativ strategiya va taktikalarni tanlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Shunisi xarakterliki, kishilar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi muloqot jarayonida turli pragmatik to'siqlarni keltirib chiqaradi. Bu esa adresantning rejalari, maqsadlari va niyatlari bilan bog'liq holda turli kommunikativ strategiyalarning tanlashiga ehtiyojini oshiradi. Agar sub'ekt aniq kommunikativ maqsadiga ega bo'lsa, odatda, unga erishish yo'llarini izlaydi. So'zlovchining maqsadi nutqda to'g'ridan-to'g'ri ifoda etilmaganda, u o'z kommunikativ niyatini ifodaning oshkora yoki yashirin shakllarida ifodalaydi.

Ma'lumki, muloqot jarayonini tashkil qilishda adresant *kommunikativ maqsad + kommunikatsiya motivi + nutqiy harakat* birligiga amal qiladi. Adresant oddiy jumla tuzishda ham qandaydir kommunikativ maqsadni ko'zlaydi. Sh.Safarov ham bu haqda fikr yuritar ekan, «muloqot maqsadi oddiygina axborot almashish bilan chegaralanib qolmasligi, axborot uzatishda «hamkor»ga ta'sir o'tkazish, uni biror narsaga ishontirish, bo'ysundirish, harakatga undash maqsadi kutilishi»ni bayon qiladi. [4]

Adresant biror kommunikativ maqsadini amalga oshirishda adresatga nisbatan qanday kommunikativ strategiyani tanlashi lozimligini oldindan belgilab oladi va shunga moslab nutqiy harakatlarni amalga oshiradi.

O.Issersning ta'kidlashicha, *strategiya* atamasi harbiy terminologiyadan olingan bo'lib, maqsadga erishishga yo'naltirilgan, mufassal o'ylangan harakatlar ketma-ketligini anglatadi. Keyinchalik bu termin lingvistik terminologiyada ham qo'llana boshlandi. Jumladan, tilshunoslikda nutq strategiyasi tushunchasi ostida ma'lum kommunikativ maqsadga erishish vazifasini olgan bir necha nutqiy harakatlar tushunildi. [5]

Lekin sen arining emas, naq o'limning uyasini kavlashni niyat qilibsan. Joning tekinga kelgan bo'lsa ham qadamingni o'ylab bos. Bola-chaqang borligini esdan chiqarma. Meni qanday tushunsang tushunaver. Qo'rqqoq deysanmi, olchoq deysanmi— nima desang deyaver. Men osmondagi haqiqatdan yerdagi jonimni azizroq bilaman. Har kuni haqiqat, adolat deb javrayotganlarga ham jon shirin. Sen ularning gaplariga uchma. U haqiqat deb boshimizni aylantirib, bizni kushxonaga boshlaydi. O'zi qo'ng'iroqli serka singari o'tib ketadi. Pichoqqa senga o'xshagan laqmalar duch keladi.

Zohid sobiq boshlig'ining gaplarini toqat bilan eshitdi. Avvallari biron masala xususida gap talashguday bo'lsa, boshliq qo'rs muomala qilar, siltab-siltab tashlardi. Hozirgi muomalasi, siniqroq ohangda, nasihat tarzida gapirishi Zohid uchun yangilik edi. Boshliqning asl qiyofasi qaysi — hozir jonli odamday kuyib gapirishimi yo avvalgi temir odamday tersligimi — Zohid farqlamay qoldi. U sobiq boshlig'iga «ha» ham, «yo'q» ham demadi. Qishloqqa har borganida onasi ham shunday gaplarni ko'p aytardi. O'zingni o'qqa-cho'qqa uraverma, deb iltijo qilardi. Onasi-ku unga kuyganidan aytardi. Boshliq-chi? Nahot Zohidning taqdiriga u ham kuyinsa?

Muloqot jarayonida nutqiy ta'sir ko'rsatish, uni amalga oshirishda qo'llaniladigan kommunikativ taktikalar majmui va turlari ham muhim ahamiyatga ega. Taktika kommunikativ strategiyani amalga oshirishga yo'naltirilgan nutqiy harakatlar yig'indisidir. Odatda, bir strategik maqsad ostida bir nechta nutqiy taktika amalga oshiriladi.

N.Qazaqova «hamkorlikka asoslangan strategiyada yumoristik usulda, samimiy, do'stona ohangda fikr ifodalash taktikasi, ziddiyatli nutqiy vaziyatda tanqidiy fikrlash, tanbeh, tergash kabi taktikaga xos lisoniy usul va vositalardan foydalanish mumkin»ligini qayd etadi. [6]

Kommunikativ strategiya va taktika masalasi nutqiy ta'sir ko'rsatish nazariyasining amaliy jihatlaridan biridir. Ko'p hollarda nutqiy ta'sir ko'rsatish deganda uning maqsadga muvofiqligi va motivatsion shartliliigi nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan nutqiy harakat tushuniladi. Muloqotning har qanday ko'rinishi suhbatdoshning faoliyatini yanada tartibga soladigan maqsadga asoslanadi. Kommunikativ strategiyalar muloqot maqsadi, adresant va adresatning manfaati va munosabatlariga bog'liq holda muayyan til vositalari orqali nutqni rejalashtirishga asoslanadi. Demak, kommunikativ strategiya «nutqni rejalashtirish» orqali amalga oshiriladi.

M.Hakimov o'z monografiyasida G'.Abdurahmonov, S.Mamajonovlarning fikrlariga tayanib: «Agarda biror narsani aniq ifodalay olmas ekannimiz, bunda tilimizdan emas, balki uquvsiz mahoratimizdan gina qilishimiz kerak», degan xulosani bayon qiladi. U fikrini davom ettirib, «fikir ifodalashning bunday usul va uslubi so'zlovchining kommunikativ strategiyasini belgilashi»ni va «so'zlovchi nutqiga xos bir ifoda aktida turlicha mazmundagi kommunikativ niyatning ifodalanishi kommunikativ taktika tushunchasini namoyon etishi»ni ta'kidlaydi.

SH.Qalandarovning fikricha, **muloqot strategiyasi** –bu so'zlovchi tomonidan oldindan rejalashtirilgan va kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan umumiy jarayonning tayyorgarlik qismiga xos holatlar majmui, har qanday muloqot strategiyasining harakatlantiruvchi kuchi kommunikativ intentsiya, ya'ni so'zlovchining maqsadi muloqot jarayoni natijali amalga oshishi uchun zarur barcha holatlarni yaxlit bir butunlikka jamlaydi. [7]

– Demak, bu ish Asadbekka borib taqaladimi? – dedi u daftarchasini cho'ntagiga solib.

– Bo'lishi mumkin, – dedi Hamdam. – Lekin bu ikki galvarsdan gap olaman, deb ovora bo'lma.

Ular Asadbekni bilishmaydi. SHarif Namozov bilan suhbatlashsang ko'p narsa oydin bo'ladi. Olimligi bor ekan. Bunaqa odamlar haqiqatparast bo'lishadi. Adolat qilaman, degan bo'lsa, qopqonga tushirishgan. Endi istasang-istamasang, qamoqqa olasan. Qoni tekshirilib giyohvand deb turilibdi. Uyidan kukunlar chiqdi. Yuz ming so'mning nari-berisidagi mol-a! Yuz mingdan kechishibdimi, demak, ish katta.

– Agar siz aytganday Asadbekning yo'lga to'g'anoq bo'lsa, osongina yo'q qilishmasmidi?

– Maydaroq odam bo'lganida balki sen aytgan yo'lni tutishardi. Namozov biron-bir masalada ochiqchasiga qarshi chiqqandir. Umuman... Yuz ming so'm ularga tramvay pattasiday gap. Agar Namozovni qamoqqa olishga ruxsat bermasang, ertaga uyingga besh yuz ming tashlab ketishlari mumkin. Unda ham ko'nmasang...

– O'ldiradimi?

– Yo'q, o'ldirmasa kerak. Lekin yo'lini topadi. Har holda ish Asadbekka borib taqalsa, u bilan o'chakishma. Sendan zo'rlar ham eplasha olmagan uni. Biz sen bilan komissar Katani bo'lolmaymiz. Lekin Asadbek advokat Teraziniga dars berishi mumkin. Senga maslahatim:

Namozovni qamash kerak. Qamasang, uning jonini saqlab qolasan. O'ylab ko'r.

E'tibor berilsa, ayrim tilshunoslar kommunikativ strategiya tushunchasiga nisbatan «nutq strategiyasi», «muloqot strategiyasi» terminlarini, kommunikativ taktikaga nisbatan «nutq taktikasi», «muloqot taktikasi» terminlarini qo'llashgan.

Ma'lumki, nutq jarayonida kommunikativ maqsadga erishishning turli yo'llari mavjud va bu strategiyalar tanlovi bilan bog'liq. So'zlovchi bir motiv ostida bir necha maqsadni ko'zlashi va muloqot taktikasini ham shu maqsadga bo'ysundirishi mumkin. O.Issersning fikricha,

«odatda, oddiy iltimos strategiyasi ostida ham bir nechta maqsadlar mujassamlangan bo'ladi, birinchidan, uni bajarish, muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik strategiyasi; ikkinchidan, adresantning o'zini namoyon qilishi strategiyasi; uchinchidan, adresant va adresat o'rtasida yaxshi munosabatlar o'rnatish, ya'ni hamkorlik strategiyasi». [8]

G.Grays hamkorlik (kooperativ) strategiyasi hosil bo'lishi uchun muloqot ishtirokchilari 4 ta asosiy tamoyil (G.Grays bu tamoyillarni maksimalar deb ataydi)ga amal qilishlari lozim. SH.Safarov ham G.Grays taklif qilgan tamoyillarni quyidagicha tasniflaydi. Bular: «**miqdor tamoyili**: ma'lum qilinayotgan axborot talab darajasida bo'lishi va ortiqcha ma'lumotni bermaslik; **sifat tamoyili**, ya'ni: yolg'on axborotni bermaslik va so'zlovchining o'zi to'liq ma'lumotga ega bo'lmagan hodisa haqida gapirmasligi; **mavzuga oidlik tamoyili**; muloqot uslubi (**tarzi**) **tamoyili**, ya'ni: aniq va tushunarli so'zlash, notanish, tushunilishi qiyin bo'lgan iboralarni qo'llamaslik, dudmallikdan qochish, bayonning qisqa bo'lishi va nutqning mantiqiy uzviylik, tartibda bo'lishi lozim».

A.Maslova kommunikativ strategiyaning turlari sifatida quyidagilarni ajratadi: hamkorlikka asoslangan strategiyalar (tasdiqlash, taskin berish, ko'ndirish va h.k.); umumiy yoki xususiy strategiyalar; nutqiy vaziyat bilan bog'liq pragmatik strategiyalar (o'zini namoyon qilish, mavqeni ushlab turish, hissiy kayfiyatini shakllantirish va boshqa strategiyalar). [9]

– *Yaxshi, yaxshi, – dedi u Zohidga qaramay. – Fe'lini bilaman, bu o'jarning. Avval gapirsam, insofga chaqirsam amalidan ajrashdan qo'rqadi, derdi. Endi amalidan ko'rqadigan boshlig'i boshqa, – u boshini ko'tarib Zohidga qaradi. – Bukirni go'r to'g'irlarkan. Sen ko'zingni ochib yur. Bukir bo'lsang ham shu yorug' dunyoda yuraver. U yoqqa shoshilma. Senga«Choqsunla»ni aytib beribmidim? – boshliq kulimsiragan bo'ldi. – Bir tajang uyg'ur yigit sochini usturada qirdirib yayrab kelayotgan ekan, qayoqdanam ari uchib kelibdiyu naq boshini chaqibdi. Yigit arining izidan yuguribdi. Yetib, qarasa, eski paxsa devor yorig'ida otning kallasiday keladigan in bormish. U shartta cho'p olib arining inini obdan kavlabdi, ari rosa to'zigandan keyin yoriqqa boshini tutib, «Choqsunla emdi, odash!» degan ekan.*

Ko'rinadiki, pragmalingsistikada kommunikativ strategiya va taktikaning turlarini belgilashda tadqiqotchilar tomonidan turfa yondashuvlar uchraydi. Bizningcha, nutqni rejalashtirish, muloqot strategiyasini va taktikasini tanlash har bir muallifning individual uslubi, mahorati, lisoniy qobiliyatiga bog'liq. Tadqiqotning mazkur faslida kommunikativ strategiya va taktika masalasi ijtimoiy-siyosiy nashrlar, xususan, respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiyalar gazetalari misolida o'rganildi va ma'lum guruhlariga ajratildi.

«**O'zini namoyon qilish» strategiyasi.** matnlarida ushbu kommunikativ strategiyani qo'llovchi mualliflar mushtariylarda ijobiy taassurot shakllantirishga va muallifga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga, yuksaltirishga harakat qilishadi.

Demak, «o'zini namoyon qilish» strategiyasining amalga oshishi tanlanadigan kommunikativ taktikaga ham bog'liq. Bu strategiyani tadqiq qilgan olim O.Parshina siyosiy diskursda «o'zini namoyon qilish» strategiyasini amalga oshirish uchun qo'llanuvchi taktikalarni tasniflaydi. Olimaning fikricha, adresat bilan birdamlik taktikasi, «o'z doirasini» yaratish taktikasi, «masofa saqlash» taktikasi; siyosiy rahbar nutqida: o'z imidjiga zarar yetkazmaslik taktikasi, ijobiy ma'lumotni ta'kidlash taktikasi; nutqiy zarba berish taktikasi va

masxaralash taktikalari «o'zini namoyon qilish» strategiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. [10]

Obro'sizlantirish strategiyasi (diskreditatsiya). Kommunikativ strategiyaning mazkur turi qarshi tomon haqida har qanday salbiy fikrni yoki ma'lumotlarni oshkor qilish, ishonchiga putur yetkazish, uning ijobiy fazilatlariga shubha uyg'otuvchi nutqiy harakat hisoblanadi. O'zbek tilida bunday nutqiy harakatlar *haqoratlamoq, kamsitmoq, mazax (masxara) qilmoq, ayblamoq* kabi fe'llar orqali bayon etiladi. Ushbu fe'llar guruhi adresantning «salbiy baho» munosabatini ifodalashga ham xizmat qiladi.

– *Bu yoqqa o'tiring, o'g'il bola.*

Asadbek kinoya bilan shunday degandan keyin ham, to Qilichbek ro'paradagi yumshoq kursiga o'tirguncha ham nigohini uzmad.

– *Eshitdinglarmi, bu akamiz shaharga hokim bo'libdilar? – dedi Asadbek. Garchi uning savoli a'yonlariga qaratilgan bo'lsa-da, ko'zi hanuz Qilichda edi. – Yo men xato eshitdimmi? Balki dunyoga hokimdirsiz, a? Qilich Asadbekka tik qarayolmay, madad istab a'yonlarga boqdi. Shu paytgacha ular orasida bunday ohangda gap-so'z bo'lmagan edi. Asadbek biron narsadan ranjisa odamlari orqali ma'lum qilardi. O'zi mayda-chuyda gaplarga aralashmasdi. Qilich zavoddagi ishni yuritishda, ishga odam olish yoki bo'shatishda Asadbek chizgan chiziqdan chetga chiqmas edi. Bosh muhandis qamalgan kuni chopar kelib «xo'jayin xafalar» dedi-yu, uning oromini oldi. U Sharifning yuqori lavozimga noloyiq ekani, ishni buzayotganini aytib ogohlantirgan edi. So'nggi suhbatda Asadbekning o'zi «yo'lini qiling» deb edi. U yo'lini topdi. Endi xo'jayin nima sababdan ranjiydi?*

– *Asadbek aka, gunohim nima, ayting? – dedi Qilich.*

– *Gapini qara-ya! Gunohini bilmasmish, – dedi Asadbek tizzasiga shap etib urib. – Sharifni nima qilding?*

– *O'zingiz aytdingiz... yo'lini top, dedingiz. Ishlarimizdan hid olib, ochaman, devdi.*

– *Ochsa nima?! Kimga ochadi? Kim kelib seni kishanga soladi? Pul topishni bilgan, aql topishni ham bilish kerak! Qamatishga sarflaganingning yarmisini o'ziga bermaysanmi.*

– *Pul olmaydigan qaysar eshshak-ku, u?*

– *U olmaydigan eshshak bo'lsa, sen pul berishni eplolmaydigan molsan! Pul olmaydigan odam yo'q bu dunyoda, pul berolmaydigan lapashanglar bor. Bilib qo'y, uch kunga qolmay Sharif uyda bo'lishi kerak. Qilich Sharifning ishi yosh bir yigit qo'lida ekanini bilardi. SHahar prokuraturasida so'zini ikki qilmaydiganlar ham bor. Shu sababli Asadbekning buyrug'idan cho'chimadi. «Shu ham ishmi!» deb yengil tortdi.*

– *O'zing o'rniga borib o'tirsang ham chiqarasan, – dedi Asadbek yanada qat'iyroq ohangda. «Buncha vahima qiladi bu», deb o'yladi Qilich. Lekin bu gapni tiliga chiqarmay «Xo'p» deb qo'ya qoldi. U osongina qutuldim, deb o'rnidan turmoqchi edi, Asadbekning gapi joyiga qayta mixladi-qo'ydi:*

– *Hosilboyvachchaga salom aytib qo'y. «Bilibdimi?!» Osongina qutuldim deb o'ylagan Qilichning yuziga endi qizillik yugura boshlagan edi. Bu gapdan keyin rangi quv o'chib, murdadan farqi qolmadi.*

– *Hosilboyvachchaga aytib qo'y: senikini artguncha, o'zinikini eplasin. Kelib-kelib o'shandan panoh izladingmi, e, so'tak!*

– Men... panoh izlamadim... boshqa ish bilan borgan edim.

– Qanaqa ish? – Asadbek shunday deb o'rnidan turdi. Savol berishga berib qo'yib, javob kutmadi. Stol tomonga o'tib, g'aladondan kattaligi sigaret qutisiday keladigan magnitofon olib jajji tugmasini bosdi.

«Itimosingizni bajardim, ora ochiq endi» – bu Hosilboyvachchaning ovozi edi. «Uning qamalganini bilib Asadbek quturibdi». Qilich o'z ovozi eshitib o'rnidan turib ketdi. Asadbek ham, a'yonlar ham uning harakatiga parvo qilishmadi. «Biz faqat olimvachchani yo'qotishga kelishgan edik. Bu yog'iga o'zingiz balogardonsiz». «Shu ish bahona bo'lib Asadbekni yo'qotish kerak! Bu shaharga xo'jayinlik qilish faqat sizga yarashadi...»

Bu gapdan keyin oraga sukut cho'kdi. Qilichning ko'z oldiga miyig'ida kulimsirab turgan Hosilboyvachcha keldi. Asadbekning qanotida yurgan odamdan bunday gapni eshitish Hosilboyvachcha uchun tushunarsiz, zavod boshqoni chin dildan aytyaptimi yo ig'vo boshlayaptimi—unga qorong'i edi. Shahardagi ikki qo'chqorning biri Hosilboyvachcha sanalsada, kuch Asadbek tomonda ekani barchaga ma'lum edi. Ikki qo'chqor ko'prik ustida uchrashsa, birining qulashi tayin. Bu haqiqat har ikkisiga oydin bo'lgani uchun kalla qo'yishga shoshilishmaydi. Ikki qo'chqor orasida kelishuv borligi juda oz odamga ma'lum. Qilich nodonlik qilganini, bularning tili bir ekanini anglab yetdi. Endi magnitofondan chiqayotgan ovozlarning uning qulog'iga kirmadi. Xayoliga asta-sekin o'rmalab kirib portlagan, «O'ldiradi!» degan vahimani fikr tanasidagi jonni quvib chiqarganday edi. Kesakpolvon g'azabdan jo'shib, sapchib turib tumshug'iga musht tushirdi-yu, uning tanasiga jon qaytdi. Yiqilib yotgan yerida avval dumbasidan so'ng belidan bir-ikki tepki yegach, xayoli yanada ravshanlashdi.

Chuvrindi Kesakpolvonni qo'lidan ushlab ajratib qo'ygach, Qilich o'rnidan turdi. Cho'ntagidan ro'molchasini chiqarib, burnidan oqayotgan qonni artdi. «Endi o'ldirishadi. Meni bu yerga ajal haydab kelgan ekan—deb o'yladi u. – Bitta boshga bitta o'lim. O'zim ahmoqman. Bularning baribir go'r ekaniga aqlim yetmabdi. O'zimni o'ldirishsa mayli, bolalarimga tegishmasa bo'lgani...» U o'lim oldida so'nggi gapimni aytib olay, degan maqsadda «Bolalarim...» deb so'z boshlamoqchi edi, g'o'diranishdan nariga o'tmadi. Kesakpolvonning bir zarbidan singan tilla tishlari gapirtirmadi.

– Senga ijozat, – dedi Asadbek, yumshoq ohangga o'tib. – Aytilgan ishni qil. Sharifning o'rnini sovutma.

Kommunikativ strategiyaning amalga oshishida yordamchi vositalardan biri sifatida uyg'un matnlar alohida ahamiyatga ega ekanligi qayd etish lozim. Bunday matnlarda tasvirlar muallifning ma'lum kommunikativ niyatini voqelantiruvchi taktika vazifasini o'taydi. Yu.Antonova kommunikativ strategiya va taktika masalasini terroristik hujumlar haqidagi nashrlar tizimida o'rganib, uyg'un mediamatnning quyidagi vazifalar bajarishini sanab o'tadi:

1. Qabul qiluvchining e'tiborini tortadi (attraktiv vazifa).
2. Adresantning his-tuyg'ularini ifodalaydi va adresat hislariga ta'sir ko'rsatadi (ekspressiv vazifa).
3. Verbal ifodani vizual, hissiy idrok qilingan tasvirlar shaklida qisman qayta ishlab chiqaradi (tasviriy vazifa).
4. Muallif tomonidan uzatiladigan axborotning vizual tasdig'i bo'lib xizmat qiladi (argumentlash vazifasi). [10]

Targ'ibot strategiyasi. Ma'lumki, matnlarining asosiy vazifalaridan biri targ'ibotdir. Targ'ibot strategiyasining maqsadi ommani ma'lum bir harakatlardan birini bajarishga undash, ishontirish va nutqiy harakatlariga ta'sir o'tkazishdir. Jumladan, gazetalarda chop etiluvchi saylovlar haqidagi partiya nashrlarida partiyani qo'llab-quvvatlovchilar ommasini kengaytirishga, saylovlarda o'z nomzodlariga ovoz berishga, partiya harakatiga ishontirishga qaratilgan targ'ibot strategiyasi qo'llaniladi. Masalan: «Milliy tiklanish» partiyasi sizga har qanday masalada suyanch bo'la oladi. (**«Milliy tiklanish», 13.11.2019**) «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining shiori sifatida berilgan matnda da'vat akti orqali xalqni o'z partiyasi harakatiga ishontirishni maqsad qilgan. Targ'ibot strategiyasi ishontirish taktikasi orqali amalga oshirilgan.

Targ'ibot strategiyasining yana bir xususiyatlaridan biri jamiyatdagi yechimini kutayotgan mavzularni yoritish orqali ommani muammolardan ogohlantirish va uning salbiy oqibatlarini oldini olishga ishontirishdir. Quyidagi matnda ham kamxarj to'ylarni targ'ib qilish orqali ommani isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikka ishontirish maqsad qilingan:

«Qahramonlashtirish» strategiyasi. Mazkur strategiyaning asosiy maqsadi ayrim kasb vakillariga omma ishonchini uyg'otish va ularga nisbatan hurmat tuyg'usini oshirishdir. «Qahramonlashtirish» strategiyasida shaxsning yoki jamiyatning ma'lum bir qatlami ijobiy xususiyatlari ko'rsatilib, uning yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga urg'u beriladi. Masalan, pandemiya davrida chop qilingan gazeta mediamatnlarini kuzatganimizda «qahramonlashtirish» strategiyasi orqali juda ko'plab tibbiyot xodimlarining e'tirof etilganini kuzatdik.

Xullas, matnlar adresantning kommunikativ maqsadini amalga oshirishning o'ziga xos shakli hisoblanadi. Bu kommunikativ maqsadga qay darajada erishilganligi adresatga nutqiy ta'sir ko'rsatilganligi bilan belgilanadi. Nutqiy ta'sir ko'rsatishda kommunikativ strategiya va taktikaning to'g'ri tanlanishi muhim o'rin tutadi. Shu bois kommunikativ strategiya va taktika masalasini pragmalingsvistik aspektida o'rganish dolzarb muammolaridan biri sanaladi. Shu boisdan har bir asarda tanlangan kommunikativ strategiya va taktika to'g'ri tanlansagina kitobxonni e'tiborini torta oladi va qiziqib mutoala qilinadi.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR:

1. Hakimov M. Ko'rsatilgan tadqiqot. -2003 yil B. 114-bet.
2. Qurbonova M. O'zbek bolalari nutqining pragmalingsvistik aspekti. -Toshkent: Adabiyot uchqunlari nashriyoti, 2018. - B.16.
3. Василина В.Н. Иллокуция как коммуникативная характеристика высказывания // Вестник МГЛУ.Серия 1. Филология. - М., 2005. - №2(18). - С. 44-53.
4. Safarov Sh. Pragmalingsvistika. -Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. - B. 54.
5. Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. - М., 2008. - Б. 54.
6. Qazaqova N. G'afur G'ulom nasriy asarlarining pragmalingsvistik tadqiqi: Filol.fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) ... diss. -Namangan, 2019. - B. 38.

7. Hakimov M. O'zbek pargmalingvistikasi asoslari. - Toshkent: Akademnashr, 2013. - B. 22.
8. Qalandarov Ш. Ўзбек лингвомаданий муҳитида халқ мақоллари эвфемизацияси: Филол. фан. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дисс. - Қўқон, 2019. - Б. 54.
9. Паршина О. Стратегии и тактики речевого поведения современной политической элиты России: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. - Саратов, 2005. - С.8.
10. Антонова Ю. Коммуникативные стратегии и тактики в современном газетном дискурсе (отклики на террористический акт): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Екатеринбург, 2007. - С.12.